
"TASHABBUSLI BYUDJET" TUFAYLI 54-OILAVIY POLIKLINIKA BINOSI MUKAMMAL TA'MIRLANMOQDA

Toshloq tumani "Quy Yakkatut" mahalla fuqarolar yig'inidagi 54-oilaviy poliklinika binosi 1989 yilda qurilgan bo'lib, hozirgi kunda ta'mirtalab holatga kelib qolgan edi. 19304 nafar aholiga tibbiy xizmat ko'rsatayotgan ushbu oilaviy poliklinikada tashabbusli byudjet natijasida ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Uzoq yillardan buyon 54-oilaviy poliklinikasida to'liq ta'mirlash ishlari bajarilmayotganligi tashabbusli byudjet jarayonida o'z yechimini topdi. Aholi hamda mehnat jamoasi loyihada faol ishtirok etib, g'olib bo'ldi. Unga ko'ra, ta'mirlash ishlari uchun 1 milliard 200 million so'm mablag' ajratildi.

Ayni kunlarda qurilish korxonasi tomonidan ta'mirlash ishlari jadal olib borilmoqda. Qurilish jarayonlarida binoning eshik-romlari to'liq yangilanib, pol qismi almashtiriladi. Tashqi fasad hamda xonalar ta'mirlanadi. Zamonaviy isitish tizimi o'rnatiladi.

Ta'mirlash ishlari yakunlangandan so'ng, zamonaviy hamda barcha sharoitlarga ega oilaviy poliklinika aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatadi.

2023-08-14 09:39:09